

BOBURIYLAR SALTANATI TARIXINI YORITISHDA MUHAMMAD TOHIR INOYATXON “SHOHJAHONNOMA”SINING AHAMIYATI

Isobek Xudaynazarov

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad Tohir Inoyatxon shaxsi, uning “Shohjahonnoma” asarida Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiylar saltanati tarixining yoritilishi (XVII asr), asarning sulola tarixini o'rganishdagi ahamiyati, voqealarni Podshohnoma turkumiga kiruvchi boshqa asarlarda kelgan ma'lumotlar bilan solishtirish, asarning mazmuni tahlil etilgan.

Kalit so'z: Muhammad Tohir Inoyatxon, Zafar Xon, Saif Xon, Tabataboiy, Tarixi Firishta, Majma' ul-bahrayn, Nigarnoma, Devoni xos, Podshohnoma.

THE IMPORTANCE OF MUHAMMAD TAHIR INAYAT KHAN'S "SHAHJAHANNAMA" IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE BABURID EMPIRE

Isobek Khudaynazarov

*Senior teacher of the Department of History of Central Asian Folks,
Tashkent State University of Oriental Studies*

ANNOTATION

This article analyzes the coverage of the history of the Baburid Empire that ruled India (17th century) in Muhammad Tahir Inayat Khan's "Shahjahannama" (Chronicle of Shah Jahan), its significance in studying the history of the dynasty, and its comparison with other works belonging to the Padshahnama series.

Keywords: Muhammad Tohir Inoyatxon, Zafar Khan, Saif Khan, Tabataboi, Tarikhi Firishta, Majma' ul-Bahrayn, Nigarnama, Devani Khas, Padshahnama.

ЗНАЧЕНИЕ «ШАХДЖАХАННАМЫ» МУХАММАДА ТАХИРА ИНАЯТАХАНА В ОСВЕЩЕНИИ ИСТОРИИ ДИНАСТИИ БАБУРОВ

Исобек Худайназаров

Ст. преподаватель кафедры Истории народов

Центральной Азии, ТашГУВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется содержание «Шахджаханамы» Мухаммада Тахира Инаята Хана, посвященное истории династии Бабур, правившей Индией (XVII век), ее значение для изучения истории династии и проводится сравнение с другими произведениями из серии «Падшахнама».

Ключевые слова: *Мухаммад Тахир Инаятхон, Зафар Хан, Саиф Хан, Табатабаи, Тарихи Фиришта, Маджма уль-Бахрайн, Нигарнама, Девони Хос, Падшанама*

KIRISH

Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga - uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o'rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda¹. XVII asr Boburiylar davlati tarixini o'rganishda "Podshohnoma" turkumida yaratilgan tarixiy asarlar asosiy manbalar hisoblanadi. Ularning eng saralari Muhammad Sodiqxonning "Shohjahonnoma", Abdulhamid Lahuriyning "Podshohnoma"², Muhammadamin Qazvinining "Podshohnoma", Inoyatxonning "Shohjahonnoma", Muhammad Kanbuning "Amali Solih", Muhammad Vorisning "Podshohnoma" Jaloliddin Tabataboiyning "Shohjahonnoma", Doro Shukuhning "Majma' ul-bahrayn", Mirzo Muhammad Qosimning "Olamgirnoma", Oqilxon Roziyning "Zafarnomai Olamgiri", Muhammad Soqi Musta'idxonning "Ma'asari Olamgiri", Bximsenning "Nusxai Dilkusho", Muhammad Hoshim Hofiyxonning "Tarixi Xavofiyxon" yoxud, "Muntahab ul-lubob", Sujan Ray Xattiriyning "Xulosat ut-tavorix" kabi asarlar hisoblanadi. Ular orasida Inoyatxon qalamiga mansub "Shohjahonnoma" asari Shoh Jahon (1628-1658) hukmronligi davrini yorituvchi muhim tarixiy manba sifatida

¹"Буюк шоир ва олим, машхур давлат арбоби Заҳириддин Мухаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. ПҚ-20-сон (25.01.2023, <https://lex.uz/en/docs/6371358>)

²Юсупова Д.Ю., Джалилава Р.П. Собрание Восточных рукописей Академии Наук РУ (Институт востоковедения им. Абу Райхана Беруни) Том-I, "Фан" Т., 1998. Редактор А.Урунбаев –С. 537. (286-287 ст.)

alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada asarning yaratilish sharoiti, manbashunoslik xususiyatlari, til-uslub jihatlarini va tarixiy qiymati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Shohjahonnoma” turkumiga kiruvchi asarlar Boburiylar saroy tarixnavisligi an’analari bo’yicha yaratilgan bo’lib, ular podshoh hukmronligini rasmiy-tarixiy uslubda bayon etishga qaratilgan. Muhammad Tohir Inoyatxonning “Shohjahonnoma”si³ Abulfazl Allomiyning “Akbarнома”si va Abdulhamid Lahuriyning “Podshohnoma”si kabi asarlar bilan bir qatorda o’rganiladi. Tadqiqotchilar mazkur asarni asosan, qiyosiy-tarixiy usulda tahlil qilib, undagi ma’lumotlarni boshqa saroy manbalari bilan solishtirgan holda baholaydilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Muhammad Tohir 1628-1671 yillarda yashab o’tgan tarixchi olim, “Inoyatxon” taxallusi bilan Hindistonda Boburiylar saltanati tarixini bitgan, Shoh Jahon hukmronligi davrining turkum manbalari sanalgan “Shohjahonnoma”lardan birining muallifi. Otasining Kashmirda mansabga tayinlangani sababli 7 yoshidan yaxshi bilim olib, saltanat kutubxonasidan foydalanish imkoniga ega bo’lgan. Muhammad Tohirning otasi Zafar Xon Jahongirning vazirlaridan biri bo’lgan. Shoh Jahon taxtni egallagan kezlarda bir muddat Kobul hokimi, so’ngra Kashmir hokimi va Tibetning bir qimini bo’ysundirishdagi xizmati evaziga o’sha viloyat subadori, so’ngra, bir muddat Tatta viloyatini boshqargan. Muhammad Tohir Inoyatxonning bobosi Saif Xon ham Agra hokimi, shahzoda Shoh Shujo 1641-yilda Bengal va Bixarni boshqargan vaqtlarda maslahatchi vazifasida faoliyat ko’rsatgan. Muhammad Tohir Inoyatxon Shoh Jahonning yaqin do’shti, hammaslagi va 1666 yil podshoh vafot etgandan so’ng umrining oxirigacha Kashmirda yashagan.

Muhammad Tohir Inoyatxon XVII asrda Boburiylar saroyida xizmat qilgan amaldor va tarixchilarning yirik vakili. Uning davlat ishlariga yaqinligi asarda keltirilgan ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, muallif saroy tarixchisi sifatida podshoh siyosatiga sodiq bo’lgani asarda madh etish va biryoqlama yondoshuv mavjudligini ham ko’rsatadi. Asar Shohjahon hukmronligini tarixda mustahkamlash va sulolaviy qudratni namoyon etish maqsadida yozilgan.

“Shohjahonnoma” xronologik tamoyil asosida tuzilgan bo’lib, unda quyidagi asosiy masalalar yoritilgan:

- Shohjahonning taxtga chiqishi va siyosiy raqiblar bilan kurashi, g’alabasi;
- Saltanat ichidagi ma’muriy islohotlar va boshqaruv tizimi;

³ Begley W.E., Desai Z.A. The Shah Jahan Nama of ‘Inayat Khan. Delhi: Oxford University Press, Oxford-New-York, 1990. 624 p.

- Harbiy yurishlar va tashqi siyosat, xususan Dekan va qo'shni hududlar bilan munosabatlar;

- Saroy marosimlari, diplomatik qabullar va rasmiy tadbirlar;
- Madaniy hayot, me'morchilik va homiylik siyosatiga doir ma'lumotlar

Asar mazmunida voqealar asosan podshoh shaxsini ulug'lash nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lib, bu holat uni tanqidiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Asar fors tilida, rasmiy-adabiy uslubda yozilgan. Matnda qasidalar, tazkiralalar, badiiy tashbeh va istioralar keng qo'llanilgan. Bu uslub Boburiylar saroy tarixnavisligiga xos bo'lib, tarixiy voqealarni ideallashtirilgan shaklda bayon etishga xizmat qiladi. Shu sababli asardan foydalanishda muallif uslubining ta'sirini hisobga olish muhimdir. Muhammad Tohir Inoyatxonning "Shohjahonnoma"si XVII asr Boburiylar davlati siyosiy tuzilishi, ma'muriy boshqaruvi va saroy madaniyatini o'rganishda muhim yozma manba hisoblanadi. Asar элчилик qabullar, rasmiy yozishmalar va davlat marosimlari haqida ma'lumotlar berishi bilan tarixiy diplomatik tadqiqotlar uchun ham qimmatlidir. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Boburiylar saroy tarixnavisligida tarix "podshoh hokimiyatining qonuniyligi va qudratini namoyon etuvchi vosita" sifatida xizmat qilgan. Shu jihatdan, Muhammad Tohir Inoyatxon ham Shohjahonni "adolatli, g'olib va ilohiy himoyaga ega hukmdor" sifatida tasvirlaydi.

«از فرّ دولت و تأیید الهی، پادشاه جهانگیر، شامجهان، اساس عدل و آیین سلطنت را استوار گردانید»

Tarjimasi: *"Davlat farri va ilohiy qo'llab-quvvatlash tufayli jahongir podshoh Shohjahon adolat va saltanat qoidalarini mustahkamladi"*.

Asarda saroy marosimlari va elchilik qabullarning batafsil bayon etilishi Shohjahon davri davlat boshqaruvida rasmiyatchilik va ierarxiya naqadar muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Elchilik marosimlari haqida:

«سفیران ممالک دور و نزدیک به رسم تشریفات، به بارگاه همایونی پذیرفته شدند»

Tarjimasi: *"Uzoq va yaqin mamlakatlar elchilari belgilangan rasmiy marosimlar asosida oliy saroyda qabul qilindi"*.

Shuningdek, "Shohjahonnoma"da harbiy yurishlar tasviri orqali Boburiylar davlatining mintaqaviy siyosatini kuzatish mumkin. Bu holat asarni faqat xronika emas, balki tashqi siyosat tarixini o'rganish uchun ham muhim manbaga aylantiradi.

Asar Shoh Jahonning taxtga chiqishi (yuksaklikka ko'tarilishi)dan oldingi hayoti hikoyalari bilan boshlanadi⁴. So'ngra, 30 yillik voqealar "Hukmronlikning birinchi yili", "Podshohlikning ikkinchi yili" tarzida sharhlangan. "Podshohnoma" yoxud "Shohjahonnoma" turkumidagi asarlarning o'ziga xom noyob xususiyati

⁴ Begley W.E., Desai Z.A. The Shah Jahan Nama of 'Inayat Khan. Delhi: Oxford University Press, Oxford-New-York, 1990. P.5.

ularning aksarida o'sha davr rassomlari ijodidan namunalar ilova qilingan. Rasmlarda saroy ayonlari, marosimlar, muhim tarixiy voqealar rangli tasvirda aks ettirilgan. Bu manbalarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Asarda bo'limlar har bir hukmronlik yili bilan ajratilsa, bo'limlar kichik sarlavhalarga ajratilgan, xususan, *"Bosh vazir lavozimini Irodat Xonga topshirish va taxtga o'tirgandan keyingi birinchi Navro'z bayrami"*, *"Yamin ud-Daula va malika Surayyobanu Begimning o'limi haqida"* kabi. Asarda shahzodalarning tug'ilishi saroyga qanchalik xursandchilik keltirgan bo'lsa, vafoti haftalab qayg'u keltirgani kichik voqealargacha batafsil tasvirlangan. Harbiy yurishlar, qo'zg'alonchilarning isyonlari albatta, saroy ayoni qarashi, nuqtai nazari bilan tasvirlangan. Masalan, 1628 yildagi qo'shin safarbarligi va isyonlar voqeasi *"Isyonkor Jajhar Singxni jazolash uchun g'olib qo'shinning safarbar qilinishi va keyinchalik saltanat bayrog'ining Akbaroboddan Gvaliorga ko'chib o'tishi"* sarlavhasi ostida yoritiladi. Muhammad Tohir Inoyatxonning *"Shohjahonnoma"*sida davlat boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, subador va mansabdorlikka munosib nomzodlarni tayinlash, hayit va navro'z kabi bayramlarning butun saltanat bo'ylab alohida rux bilan keng nishonlanishi, Laxor, Burxonpur, Kashmir, Davlatobod, Kobul, Ajmer, Agra, Mandu kabi shaharlar bo'ylab arkoni davlatning ko'chishi hamda Ahmadnagar, Golinda, Bijapur, Gvalior, Bixar, Banoras, Gujorat, Bengal kabi yirik viloyatlarga shahzodalarning hokim siftida tayinlanib, ularning yoniga tajribali amaldorlardan maslahatchilar tayinlanishi tasvirlangan. Shuningdek, asarda har yilgi ramazon oyi tadbirlari, oq filga minish marosimi, hindlarga xos bayramlarning nishonlanishi alohida tasvirlangan. Asarda Buxoro xonligi va Boburiylar o'rtasidagi elchilik aloqalari, Bomiya hududida Ashtarxoniylar sarkardasi Yalangto'shbiy va Shoh Jahon qo'shinlari o'rtasidagi kurash hamda Qandahor uchun bo'lganlar janglar ham mahorat bilan tasvirlangan.

XULOSA

Birinchidan, Muhammad Tohir Inoyatxonning *"Shohjahonnoma"* asari Boburiylar davri tarixnavisligining muhim namunasi bo'lib, Shohjahon hukmronligi davrini o'rganishda katta ilmiy ahamiyatga ega. Asar siyosiy, ma'muriy va madaniy hayotni yoritishi bilan birga, saroy tarixnavisligining uslubiy xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Ikkinchidan, unda keltirilgan ma'lumotlar, ayniqsa diplomatik qabullar, rasmiy marosimlar va davlat boshqaruvi haqidagi tasvirlar tarixiy diplomatik tadqiqotlar uchun qimmatli manba hisoblanadi. Shu bilan birga, asarni tahlil qilishda uning saroy manbasi ekani, muallifning podshoh hokimiyatini ulug'lashga moyilligini ham hisobga olinishi zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI**(REFERENCES):**

1. Begley W.E., Desai Z.A. The Shah Jahan Nama of 'Inayat Khan. Delhi: Oxford University Press, Oxford-New-York, 1990. 624 pp. (Translation of A.R. Fuller British Library, Add.30777)
2. Ebba Koch, Milo C.Beach, Wheeler M.Thackston, The King of the World: The Padshahnama : An Imperial Mughal Manuscript from the Royal Library, Windsor Castle, London, 1997, P. 270.
3. Jalaladdin Tabatabai Ardestani. Shahjahan Namah (in persian). Alpha Art. New-Delhi, 2009, 456p.
4. John Richards. Mughal_Empire (The New Cambridge History of India) London. 2001. P. 335.
5. Юсупова Д.Ю, Джалилава Р.П. Собрание Восточных рукописей Академии Наук РУ (Институт востоковедения им. Абу Райхана Беруни) Том-I, “Фан” Т., 1998. Редактор А.Урунбаев –С. 537. (286-287 ст.)
6. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Analysis of the Phenomenon of" Assabiya" In the Socio-Philosophical Concept of Abdurahman IBN Khaldun. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 219-223.
7. Bakhtiyorovich, S. J. (2023). Interpretation of the Approaches to the Concept of the State in the Ethical Views of Abu Zayd Abdurahman Ibn Khaldun. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 161-164.
8. Sulaymonov, J. (2024). “MUQADDIMA” ASARINING ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOY FALSAFIY TA'LIMOTIDAGI O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(5), 964-972.
9. Сулаймонов, Ж. Б. “АСАБИЙЙА”–АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АСОСИЙ КАТЕГОРИЯЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА.
10. Sulaymonov, J. (2024). ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOY FALSAFIY MEROSINING YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 653-661.
11. Sulaymonov, J. (2024). IBN XALDUN MA'NAVY MEROSIGA DOIR MULOHAZALAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 102-110.
12. Sulaymonov, J. (2024). “MUQADDIMA” ABUZAYD ABDURAHMON IBN XALDUN IJTIMOY FALSAFIY MEROSINING ASOSIY MANBASI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 5(5), 759-767.